

Surʼiylar D

# TALABALAR PEDAGOGIK AMALIYOTI BOʼYICHA HAMKORLIK

## SHARTNOMASI

Toshkent shahri

“07 09 2024 y.

Nizom asosida ish yurituvchi Oʼzbekiston davlat jahon tillari universiteti (keyingi oʼrinlarda “Universitet” deb yuritiladi) rektor I.Tuxtasinov, hir tomonidan va Nizom asosida ish yurituvchi 151-mlakmal (keyingi oʼrinlarda “Qabul qiluvchi (taʼlim muassasalari, Korxona, tashkilot, xususiy sektor)” deb yuritiladi) 3-yoʼnalishli tayyorlashning ikkinchi tomonidan, mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

### I. Shartnomaning maqsadi:

- 1.1. Shartnoma universitetda tahsil olayotgan talabalarining amaliyot oʼtashini tashkil etish orqali Universitet va 151-mlakmal oʼrtasida oʼzaro hamkorlik va foydali integratsiyani shakllantirish, unumli mehnat asosida (taʼlim muassasalari, korxona, tashkilot, xususiy sektor) uchun malakali kadrlar tayyorlashning ikki tomonlama foydali va samarali tizimini rivojlantirish, amaliyot oʼtashni davlat taʼlim standartlari talablari darajasida tashkil etish maqsadida tuzildi.
- 1.2. Universitet mutaxassislik yoʼnalishlarida tahsil olayotgan talabalar amaliyotini oʼtash uchun qabul qilish majburiyatini oladi.

### II. Tomonlarning majburiyatları:


- 2.1. Universitet ushbu shartnoma yuzasidan oʼz zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi;
  - 2.1.1. Mazkur shartnoma asosida talabalar amaliyot oʼtashini tashkil etish boʼyicha rektor buyrugʼini tayyorlash va chiqarish, amaliyot boshlanishidan kamida bir hafta muddat oldin tayyorlash va oʼrnatilgan tartibda tasdiqlanishini, hamda bir nusxasi (taʼlim muassasalari, korxona, tashkilot, xususiy sektor)ga taqdim etilishini taʼminlash;
  - 2.1.2. Amaliyot oʼtaydigan talabalar va ularga biriktirilgan kafedra boʼyicha amaliyot rahbari roʼyxatini amaliyot boshlanishidan kamida uch kun oldin, (taʼlim muassasa, korxona, tashkilot, xususiy sektor)ga taqdim etish;
  - 2.1.3. Amaliyot oʼtkazish jadvali va amaliyot ishchi dasturini taʼlim muassasalari, korxona, tashkilot, xususiy sektor) ning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqish, kelishgan holda tasdiqlash, (taʼlim muassasalari, qoʼshma korxonalar, tashkilotlar, xususiy sektor)ning takliflariga muvofiq oʼquv reja va dasturlarga oʼrnatilgan tartibda qoʼshimcha va oʼzgartirishlar kiritish;
  - 2.1.4. Talabalarning amaliyot oʼtash joylariga oʼz vaqtida yetib borishlarini taʼminlash va ularning amaliyot dasturida nazarda tutilgan ishlarni bajarishlarini nazorat qilib borish;
  - 2.1.5. Talabalarning (taʼlim muassasalari, korxona, tashkilot, xususiy sektor) dagi ichki mehnat tartibi, mehnat muhofazasi, yongʼin va texnika xavfsizligi qoidalari amal qilishi boʼyicha tushuntirish ishlarini olib borish;
  - 2.1.6. (Taʼlim muassasalari, korxona, tashkilot, xususiy sektor) tomonidan amaliyot oʼtayotgan talabalarga ajratiladigan vositalardan amaliyotchi talabalar avaylab-asrab foydalanishlarini taʼminlash;
  - 2.1.7. Talabalar tomonidan amaliyot oʼtash tartibi, (taʼlim muassasalari, korxona, tashkilot, xususiy sektor)dagi ichki mehnat tarkibi, mehnat muhofazasi, yongʼin va texnika xavfsizligi qoidalari buzilishiga yoʼl qoʼyilgan hollarda ularga nisbatan tegishli intizomiy choralar koʼrish.

- 2.2. (ta'lim muassasalari, korxona, tashkilot, xususiy sektor) lar ushbu Shartnoma yuzasidan o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:
- 2.2.1. Talabalarning amaliyot o'tashini tashkil etish bo'yicha (ta'lim muassasalari, korxona, tashkilot, xususiy sektor) buyrug'ini chiqarish;
- 2.2.2. Universitet taqdim etgan ro'yxat asosida talabalarni mazkur shartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda amaliyot o'tashlari uchun qabul qilish;
- 2.2.3. Amaliyotga umumiy va bevosita rahbarlik qilish uchun (ta'lim muassasalari, korxona, tashkilot, xususiy sektor) xodimi (xodimlari)ni tayinlash;
- 2.2.4. Universitetdan tayinlangan amaliyot rahbari bilan birgalikda talabalarning (ta'lim muassasalari, korxona, tashkilot, xususiy sektor) ning ichki mehnat tartibi, mehnat muhofazasi, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalari qoidalariga amal qilishi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish uchun mas'ul xodim tayinlash;
- 2.2.5. Talabalar tomonidan amaliyot o'tash tartibi, (ta'lim muassasalari, korxona, tashkilot, xususiy sektor)dagi ichki mehnat tartibi, mehnat muhofazasi, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalari buzilishiga yo'l qo'yilgan hollarda bu haqida fakultetni xabardor qilish;
- 2.2.6. Amaliyot o'tayotgan talabalarga (ta'lim muassasalari, korxona, tashkilot, xususiy sektor)ning davlat, tijorat va boshqa sirlar mavjud bo'lgan hujjatlari bilan tanishish uchun imkoniyat yaratib berish;
- 2.2.7. Amaliyot o'tayotgan talabalarni faqat tasdiqlangan amaliyot dasturida nazarda tutilgan ishlarga jalb etish;
- 2.2.8. Amaliyot yakuni bo'yicha amaliyot rahbarlari va talabalar tomonidan hisobotlarni o'matilgan tartibda tasdiqlash, talabalarga yozma tavsifnomalar berish.

### III. Yakuniy qoidalar:

- 3.1. Mazkur Shartnoma Universitet va 151 - УАКНМ  
tomonidan imzolangan kundan kuchga kiradi va \_\_\_\_\_ yilgacha amal qiladi.
- 3.2. Mazkur Shartnoma teng huquqiy kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuziladi va tomonlarda bir nusxadan saqlanadi.
- 3.3. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, uning amal qilishini muddatidan oldin to'xtatish tomonlarning o'zaro yozma kelishuviga asosan amalga oshiriladi.
- 3.4. Shartnoma universitet hamda amaliyot o'tovchi talabalar o'rtaсидаги munosabatlar mazkur shartnoma talablari asosida tartibga solinadi.
- 3.5. Mazkur Shartnomada ko'zda tutilgan va tutilmagan holatlar yuzasidan barcha kelishmovchilik hamda nizolar amaldagi qonun hujjatlari talablari asosida hal etiladi.

O'zbekiston davlat jahon  
tillari universiteti rektor  
**Tuxtasinov Ilhomjon Madumarovich**




“07” 09 2024 y.

Депондо тураси  
151 - уч. УАКНМ мажлиси  
шакинчи  
Зурабжоев С. Ш.  
“07” 09 2024 y.

